

## TERI KASALLIKLARIDA FOYDALI BO'LGAN XALQ TABOBATI DORIVOR O'SIMLIKLARI BO'YICHA TAVSIYALAR

**Zahriddinov Ilyosjon Ilhomjon o'g'li**

Namangan davlat universiteti Biotexnologiya kafedrasи o'qituvchisi

**Tursunova Nodira Shokirjon qizi**

Namangan davlat universiteti talabasi

E-: [zahiriddinovilyosbek3@gmail.com](mailto:zahiriddinovilyosbek3@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Bugungi kunda bir qator mamlakatlarda zamonaviy tibbiyat va xalq tabobati integratsiyalashuvi konsepsiysi ommalashmoqda hamda integrativ meditsina kelajak meditsinasи bo'lishi mumkinligi taxmin qilinmoqda. Bunday fikrlar bildirishga juda ham ko'p dalillar mavjud ayni paytda kimyoviy dori darmonlarni salbiy ta'sirlarini natijasida yangi kasalliklarni avj olishini ham bunga misol tariqasida olishimiz mumkin. Ma'lumki xalq tabobatida teri kasalliklarini davolashda shifobaxsh dorivor o'simliklar yetarlicha topiladi. Bunday o'simliklardan ekma sedana, xushbo'y ruta, yapon saforasi, oddiy kanakunjut o'simliklari teri kasalligida juda foydali surtqi sifatida foydalananib kelinadi.

**Kalit so'zlar:** Xushbo'y ruta, teri yarasi, so'gal, sedana, surtma, temiratki, yiringli yara, ekzema, frunkulda, dermatit.

### РЕКОМЕНДАЦИИ ПО НАРОДНЫМ ЛЕКАРСТВЕННЫМ РАСТЕНИЯМ, ПОЛЕЗНЫМ ПРИ КОЖНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЯХ

**Захриддинов И.И.**

Преподаватель кафедры биотехнологии Наманганского государственного университета

**Турсунова Н.Ш.**

студентка Наманганского государственного университета

E-mail: [zahiriddinovilyosbek3@gmail.com](mailto:zahiriddinovilyosbek3@gmail.com)

### АННОТАЦИЯ

Сегодня концепция интеграции современной медицины и народной медицины набирает популярность в ряде стран, и предполагается, что интегративная медицина может стать медициной будущего. Доказательств для высказывания подобных мнений множество, в то же время в качестве примера можно привести вспышку новых заболеваний в результате негативного воздействия химических препаратов. Известно, что в народной медицине достаточно лекарственных растений для лечения кожных заболеваний. Среди таких растений как очень полезные мази при кожных заболеваниях используются седан, ruta ароматная, сафлор японский, кунжут обыкновенный.

**Ключевые слова:** Рута ароматная, язва кожи, седан, натирание, железо, гнойная рана, экзема, фурункул, дерматит.

## RECOMMENDATIONS ON FOLK MEDICINAL PLANTS USEFUL FOR SKIN DISEASES

**Zahriddinov Ilyosjon**

Teacher of Biotechnology Department of Namangan State University

**Tursunova Nodira**

student of Namangan State University

E-mail: [zahiriddinovilyosbek3@gmail.com](mailto:zahiriddinovilyosbek3@gmail.com)

### ABSTRACT

Today, the concept of integration of modern medicine and folk medicine is gaining popularity in a number of countries, and it is estimated that integrative medicine can be the medicine of the future. There is a lot of evidence to express such opinions, at the same time we can take as an example the outbreak of new diseases as a result of the negative effects of chemical drugs. It is known that in folk medicine there are enough medicinal plants for the treatment of skin diseases. Among such plants, nigella sativa, aromatic ruta, Japanese safflower, common sesame plants are used as very useful ointments for skin diseases.

**Keywords:** Fragrant ruta, skin ulcer, sogal, sedana, rub, iron, purulent wound, eczema, furuncle, dermatitis.

### KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o‘simliklar yetishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohotlar amalgalashirilmoqda. O‘zlashtirilmagan yer maydonlari ko‘p bo‘lgan viloyatlarimizda shu iqlimga mos bo‘lgan dorivor o‘simliklar yetishtirish uchun katta imkoniyatlar va imtiyozlar yaratilmoqda. Ayni paytda jamiyatimizda ko‘p uchrab turgan yangi kasalliklarni paydo bo‘layotganini, jumladan iqlim o‘zgarishi natijasida allergik, nafas yo‘li va turli xil teri kasalliklari avj olmoqda. Shunday dolzarb masala yuzasidan kelib chiqqan xolda prizidentimiz tomonidan dorivor o‘simliklardan oqilona foydalanish va muxofaza chora tadbirlari to‘g‘rida ko‘plab qarorlari tasdiqlandi.

Ayniqsa 2022-yil 1-iyundan boshlab samarasini isbotlangan dorivor o‘simliklarni bosqichma-bosqich tibbiy yordam ko‘rsatish standartlari va protokollariga kiritish. Bunda, Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan yangi yaratilgan hamda ishlab chiqarishga joriy etilgan dori vositalarining tibbiyot amaliyotida keng qo‘llanilishini ta’minlash maqsadida klinik protokollar, diagnostika hamda kasalliklarni davolash standartlari har olti oyda qayta ko‘rib chiqiladi; uch oy muddatda barcha davlat tibbiyot ta’lim muassasalarida dorivor o‘simliklar va xalq tabobati bo‘yicha ta’lim berishga yo‘naltirilgan kafedralarni tashkil etish bo‘yicha taklif kiritish bo‘yicha prizidentimiz

tomonidan topshiriq berildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 20.05.2022 yildagi PQ-251-son

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

2022-yil 1-iyundan boshlab samarasi isbotlangan dorivor o‘simpliklarni bosqichma-bosqich tibbiy yordam ko‘rsatish standartlari va protokollariga kiritish. Bunda, Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan yangi yaratilgan hamda ishlab chiqarishga joriy etilgan dori vositalarining tibbiyat amaliyotida keng qo‘llanilishini ta’minlash maqsadida klinik protokollar, diagnostika hamda kasalliklarni davolash standartlari har olti oyda qayta ko‘rib chiqiladi. Prezidentining qarori, 20.05.2022 yildagi PQ-251-son. [1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simpliklarni muhofaza qilish, madaniy holda etishtirish, qayta ishslash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4670-sonli qaror qabul qilindi.[2] Qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligining 2020 yil 1 maydan boshlab dorivor o‘simpliklarni yetishtirish, saqlash, birlamchi yoki chuqur qayta ishslash klasterlarini (keyingi o‘rinlarda – dorivor o‘simpliklar klasteri) tashkil etish, shuningdek, hududlarni dorivor o‘simpliklar yetishtirish bo‘yicha ixtisoslashtirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullandi.

Jumladan dorivor o‘simpliklarni o‘rganishda juda ko‘p olimlar turli metodlar asosida ish olib borishgan. Xususan respublikamiz olimlaridan E.T Berdiyev, E.T Ahmedov “Tabiiy dorivor o‘simpliklar” [3] Jo‘rayeva, M.A. Dorivor o‘simpliklar atlasi,[4] Q.Ahmedov., A.Ergashev., A.Abzalov., M.Yulchiyeva, S.Azimboyev [5] tavsiyalari asosida juda ko‘p shifobaxsh o‘simpliklar yetishtirish va damlama tayyorlash va qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqdilar. Shifobaxsh o‘simpliklardan teri kasalliklarida foydalashish bo‘yicha Y. Murdaxayev.[6], O‘zbekistonda keng tarqalgan foydali o‘simpliklarni o‘rganishda M. Tulyaganova., Yuldashev A.S [Toshkent 2011] [7] Shuningdek dorivor ichimliklarni organoleptik kursatkichlari Y.E.D.Tilgner. Ozik ovkat maxsulotlari va ichimliklarni organoleptik taxlili. M. Agroprouzdat, 2002.-19 bet.[8] Nishonov O‘tkirali Raxmatillayevich, Ataxanov Shuxratjon Nuriddinovich o‘simpliklar asosida shifobaxsh ichimlik ishlab chiqarish texnologik liniyasi 2023- 58 bet. [9]

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Xozirgi kunda tibbiyotda yapon saforasi, ekma sedana, xushbo‘y ruta, oddiy kanakunjut xom ashysidan tayyorlangan surtma, damlama, nastoykasi teri kuyishi, uchug‘ yarasida, teri temiritkida foydalanish uchun ishlatib natijalar kuzatiladi. Shifofaxsh ruta damlamasi ovqatdan 15-20 daqiqa o‘tgach, 1-2 osh qoshiqdan kuniga


2 marta 7 kun davomida ichiladi. Yapon safora va kanakunjut urug‘idan tayyorlangan surtma, mayda to‘rli suzg‘ichdan suzib, kuniga 2-3 mahal terinidagi kuygan joyga temitikida surtma sifatida tavsiya etiladi. Bemorda safora, kanakunjut, ruta, o‘simgilida yuqori allergik sezuvchanlik bo‘lsa foydalanish tavsiya etilmaydi. Shuningdek shifobaxsh ruta damlamasi organoleptik ko‘rsatkichlari Tilgner usulida tekshirildi.

### TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Yapon saforasi, xushbo‘y ruta, oddiy kanakunjut xom ashysidan tayyorlangan surtma, damlama, nastoykasi teri kuyishi, uchug‘ yarasida, teri temiritkida foydalanilganda quyidagi o‘zgarishlar sezildi.

**1-jadval: Kuzatish natijalari**

| Nº | Kasallik turi     | Kuzatishlar                        | Kuzatish natijalar                                      | Natijalar % |
|----|-------------------|------------------------------------|---|-------------|
| 1  | Teri temiritkida, | 2023.08.23 dan<br>2023.08.28 gacha | Terida epidermasi jadallik bilan yangilanishi kuzatildi | 66          |
| 2  | Gerpis virusi     | 2023.09.14 dan<br>2023.09.17 gacha | Terida epidermasi jadallik bilan yangilanishi kuzatildi | 71          |



Gerpes virusi natijasida shamollahda yuzaga kelgadigan uchug‘ yarasiga xushbo‘y ruta damlamasi ovqatdan 15-20 daqiqa o‘tgach, 1-2 osh qoshiqdan kuniga 2 marta 7 kun davomida ichishga tavsiya etilgan 3 kuni o‘z ta’sirini ko‘rsata boshladi. Yapon saforasi, kanakunjut urug‘idan tayyorlangan surtma teridagi temiritkada yangi terini shakkalanishida samarali foya bergani kuzatildi. Tavsiya sifatida yuqoridagi o‘simgilardan xom ashysidan tayyorlangan damlama surtma preparatlardan foydalanish samarali yordam beradi.

### XULOSA

Yuqoridagi kuzatishlar natijasidan xulosa qilib aytganda yapon saforasi, xushbo‘y ruta, oddiy kanakunjut xom ashysidan tayyorlangan surtma, damlama, nastoykasi teri kuyishi, uchug‘ yarasida, teri temiritkida foydalanilganda quyidagi o‘zgarishlar sezildi.

Gerpes virusi natijasida shamollahda yuzaga kelgadigan uchug‘ yarasiga xushbo‘y ruta damlamasi ovqatdan 15-20 daqiqa o‘tgach, 1-2 osh qoshiqdan kuniga 2 marta 7 kun davomida ichishga tavsiya etilgan 3 kuni o‘z ta’sirini ko‘rsata boshladi. Yapon saforasi, kanakunjut urug‘idan tayyorlangan surtma teridagi temiritkada yangi terini shakklanishida samarali foyda bergani kuzatildi. Tavsiya sifatida yuqoridagi o‘simliklardan xom ashysidan tayyorlangan damlama surtma preparatlardan foydalanish samarali yordam beradi.

Ma’lumot o‘rnida yuqoridagi dorivor o‘simliklar boshqa kasallikda qo‘llash bo‘yicha ham tavsiyalar to‘plami.

•**Ekma sedana** –*Nigella sativa* L. Ayiqtovondoshlar –Ranunculaceae oilasiga mansub bir yillik o‘simlik.

•**Ishlatilishi:** Ibn Sino sedana bilan so‘gallarni, temiratki, husunbuzar, pes (vitiligo) va boshqa teri kasaliklarni davolagan shishlarni qaytargan,yara va yarali traxomani yaxshilashda foydalangan.

•**Xushbo‘y ruta**-*Ruta graveolens* L. Rutadoshlar-Rutaceae oilasiga mansub yarim buta.

•**Ishlatilishi:** Tibbiyotda xushbo‘y ruta o‘simligining yer ustki qismi preparatlari qon tomirlarning spazmasi natijasida kelib chiqqan bosh og‘rig‘i pnevmoniya, revmatizm, bolalarda tirishish bilan o‘tadigan kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Bundan tashqari qo‘tir va boshqa teri kasalliklarini davolashda ham qo‘llaniladi.

•**Yapon soforasi** (tuxumak) –*Sophora japonica* L. Dukkakdoshlar –Fabaceae oilasiga mansub daraxt.

•**Ishlatilishi:** Mevasidan tayyorlangan nastoyka yiringli va trofik yaralar hamda kuygan joyni davolash uchun ishlatiladi. Nastoyka bakteritsid va yaralarni bitishini tezlashtirish ta’siriga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Prezidentining qarori, 20.05.2022 yildagi PQ-251-son. [Toshkent 2022 y] Lex.uz
2. “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda etishtirish, qayta ishslash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-4670-sonli qaror qabul qilindi. [Toshkent 2020 y] Lex.uz
3. E.T Berdiyev, E.T Ahmedov "Tabiiy dorivor o‘simliklar" (o‘quv qo‘llanma) Toshkent, O‘zRFA Minitipografiyasi, 2018.113-114 bet.
4. Jo‘rayeva, M.A. Dorivor o‘simliklar atlasi [Matn]: o‘quv go‘llanma/ M.A. J-Toshkent: Noshir nashriyoti, 2019. - 264 b.
5. Q.Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yulchiyeva, S.Azimboyev. Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi darslik. [Toshkent: Shafoat Nur Fayz, 2020. - 232 b.]

6. O‘zbekistonda vatan topgan dorivor o‘simliklar Y. Murdaxayev., [Toshkent 1990] 3-74 bet.
7. O‘zbekistonda keng tarqalgan foydali o‘simliklarni o‘rganishda M. Tulyaganova., Yuldashev A.S [Toshkent 2011] 3-92 bet.
8. Y.E.D.Tilgner. Ozik ovkat maxsulotlari va ichimliklarni organoleptik taxlili. M. Agroproizdat, 2002.-19 bet
9. "Central asian food engineering and technology" elektron ilmiy jurnali. Journal of Food Science Volume1Issue 4 June 2023 Issn: 2181-385x 4- son 2023-58-84 b.

### Internet ma’lumotlar

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Zubturum>.
2. [https://cyberleninka.ru/article/n/zubturum-o-simligidan-tayyorlangan-ayrim-dorivor\\_vositalarning-ateroskleroz-va-bavosirni-davolashda-qo-llanilishi](https://cyberleninka.ru/article/n/zubturum-o-simligidan-tayyorlangan-ayrim-dorivor_vositalarning-ateroskleroz-va-bavosirni-davolashda-qo-llanilishi).
3. <https://uzpharmagency.uz/oz/news/dorivor-osimliklar-turkumidan-bargizubning-xosiyatlari-haqida>.
4. <https://uzpharmagency.uz/oz/news/dorivor-osimliklar-turkumidan-bargizubning-xosiyatlari-haqida>
5. <https://lib.jbnuu.uz/storage/books/September2022/jDLatu8eugA7FmPPfV7n.pdf>